

# XURSHID DO'ST MUHAMMADNING "PANOH" QISSASIDA BADIY

## PSIXOLOGIZM

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish  
(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
e-mail: [salimovarayxona00@gmail.com](mailto:salimovarayxona00@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy psixologizmning haqida to'xtalib, asar bosh qahramonining ruhiy kechinmalari va o'y-xayollari tahlillar orqali tadqiq etilgan Ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirildi.

**Kalit so'zlar:** badiiy psixologizm, ichki monolog, qahramon kechinmalari, obraz, obrazlilik, badiiy tasvir vositlari, psixologik konflikt.

**Abstract:** In this article, the inner monologue form of literary psychologism is thoroughly examined, and the protagonist's emotional experiences and thoughts are revealed through analytical means.

**Key words:** Literary psychologism, the use of inner monologue, the protagonist's emotional and psychological experiences, and the depiction of their inner self.

Adabiyot inson ruhiyatining eng nozik nuqtalarini olib beruvchi san'at turidir. Badiiy asarlarda qahramon ichi kechinmalari, ruhiy iztiroblari, o'y-xayollari va hiss tuyg'ularining chuqur tasvirlanishi psixologik tahlil asosida amalga oshiriladi. Bunday tahlil adabiyotshunoslik ilmida "badiiy psixologizm" deb ataladi. Zamonaviy adabiyotda personajning o'ylarini "ichki monolog" shaklida berish keng ommalashgan. Mohiyatan u personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va faqat ichidagina kechuvchi nutqi bo'lib, shartli ravishda uning ongida kechayotgan fikrlash(his qilish) jarayoni deb qabul qilinadi. Ichki monolog vositasida personaj yuz berayotgan voqealarni mushohada qiladi, o'zini taftish qiladi, izhor etadi, iqror qiladi [1].

Russel T.Hurlburt ichki monolog haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Ichki so‘zlashuv kundalik hayotda tez-tez uchraydigan hodisadir, lekin bu barcha odamlar uchun umumiylashtirish emas. Ba’zi odamlar uni tez-tez boshidan kechiradi, boshqalar esa kamdan-kam yoki umuman yo‘q [2].

“Panoh” qissasi bosh qahramoni Ahmadali ismli yigit bo‘lib, Jo‘ba qishlog‘ida yashaydi. Asar voqealar rivoji davomida Ahmadalining o‘z ichki “men”i bilan suhbat qurib, o‘zini taftish qilgani va o‘zi bilan kurashgani aks etgan o‘rinlar ko‘p uchraydi. U ichki “men”iga Kimsan deb murojaat qilib, fikrlashadi. Ahmadaliga hamdam bo‘lgan dastlabki Kimsan Ahmadali bilan bir xil fikrlaydi, unga yon bosadi. Demak, Ahmadali dastlab o‘z foydasini ko‘proq ko‘zlagan, qishlog‘iga hali u qadar mehri uyg‘ongan emas.

Zilzila sodir bo‘lganidan so‘ng akasi Ahmadaliga: “O‘sha zahoti ortinggao-pamnikiga yugurish xayolingga keldimi?”, – deb so‘raganda Ahmadali quyidagicha fikrlaydi: “To‘g‘ri-da!.. Nega o‘sha zahoti orqasiga qaytmadi? Axir avvali ona o‘rnida ona bo‘lib qolgan katta opasidan xabar olishi, ehtimol, xudo ko‘rsatmasin... u tom otida qolib ketgan bo‘lsa... opasini qutqarishi, shundan so‘nggina uyigabolalarining odiga yugurishi lozim emasmidi? U bo‘lsa... ”. [4]. Shu joyiga kelganida Ahmadali o‘zini oqlashga tushadi, ya’ni Kimsan tilga kiradi: “Nima, u bo‘lsa? “Nima, shirin-shakar o‘g‘il qizlaring ko‘zingga ko‘rinmasligi kerakmi?” [4].

Ahmadalining ichki “men”i tezroq oilasi, bolalari tomon borib, qutqarishga undaydi, qolganlarni o‘ylamaydi: “O‘sha taloto‘pda “opam-akam”ga balo bormi?! Bunaqangi ofatlar hammani bir-biriga opa-uka, og‘a-ini qilib qo‘yadi!..” [4].

Ammo Ahmadali beva qolgan Gulgunning dam u, dam bu odamga tarmashib dod solayotganini ko‘rib “men”iga qarshi turadi, ayolga yordam beradi. Keyinchalik Ahmadalining qalbida nafaqat qishlog‘iga, balki, qishlog‘idagi har bir narsaga mehri uyg‘onib boradi. Xususan, zilzila vaqtida Ona o‘rik (Ha, ha, o‘sha bugun qishloqdagi o‘rikarning onasi!) qulab tushganida uning yonidan o‘tayotganida qulog‘iga Ona o‘rikning “Ihmm”degan mayin-muloyim sasi eshitadi. Keyin ich-ichidan his qiladi-ki, Ona o‘rik go‘yoki Jo‘ba qishlog‘idan ayrilayotgani uchun, endi uning o‘rnida to‘qqiz

qavatli uy qurilishini bilgani uchun g‘amga botgan. U Ona o‘rikning zorini bir-ikkita do‘sstariga aytib bergenida “esxonasi chiqib vahima” bo‘lib qolganga chiqadi. Ahmadali keyin ham Ona o‘rikning zorini eslaganida bu nola bir paytlardagidek o‘z onasining oh-u zoriga qorishib ketgandek bo‘ladi.

Ahmadalining ichki “men”i kezi kelganida uni to‘g‘ri fikrlab, o‘ylab qaror chiqarishga undaydi. Opasining qizi Sadaf Appon zakunning nabirasi bilan bir-birini sevadi. Undan sovchi kelganini eshitgan Ahmadali ham, akasi ham bir paytlar Appon zakun oddiy bir “O‘rikni o‘zlashtirishda” ayblab, “Xalq dushmani” degan tuhmatni otasi bo‘yniga qo‘yib, qamalishiga sababchi bo‘lganini eslab tarashadek qotib qoladilar. Shunda Ahmadalining ichki ovozi: “Sadafda gunoh yo‘q Axir u na otang chekkan mashaqqatlardan, na Appon zakunning kirdikorlaridan xabardor!”, “*Otabobolar janjalini nevara-evaralar davom ettirishidan hech qanday ma’no qolmas?*”, degan fikrlarini uning fikrlariga teskari qo‘yadi. Ahmadali esa: “Sevish-sevilish muqaddasmi yoki Ona o‘rik yaproqlarining shivirimi” , degan o‘y-xayollarni ko‘nglidan o‘tkazadi.

Asar so‘ngida paydo bo‘lgan Kimsan Ahmadali izmidan yurmaydi,unga bo‘ysunmadi. U o‘zini Ahmadali deb hisoblab,Ahmadaliga esa Kimsan deb murajaat qiladi. Shifokor Ahmadalida boshlangan allergiya toza havoda davo topishini,uzoqlarga ketishini maslahat bergenida yangi Kimsan: “*Sen ketaver. Men shu yerda Ahmadali bo‘lib qolaman* ”, – deydi. Ahmadali avvalgi Kimsanni qo‘msaganida yangi Kimsan: “*Burungi Kimsanni unut endi... Go‘dak bola-ku u. O‘shanga tarmashib olsang odam bo‘lmaysan... Ko‘zingni kattaroq ochadigan,qishlog‘ingni,kindik qoning to‘kilgan tuprog‘ingni o‘ylaydigan payt keldi* ”[4], – deb keskin gapiradi.

Bir yo‘li Ahmadali o‘z-o‘ziga: “*Bolalarni o‘ylaysanmi-a?.. Mish-mishdan boshqaga yaramaydigan mana shu el qatori yashaymi?* ”, – degisi keldi. Lekin so‘zsiz qoldi. Yangi Kimsanning yo‘lidan yurib ona qishlog‘ida qoldi.

Xulosa shuki, yangi Kimsanning paydo bo‘lishi Ahmadalining ma’nan yuksalishi bilan izohlanadi. Yangi Kimsan unda tuganmas bolalik xotiralarini hadya qilgan qishlog‘iga muhabbat uyg‘otdi. Zero, endi Ahmadali posyolkadan beriladigan ko‘p

xonali uyg'a ham qiziqmas, allergiyasi zo'rayib ketayotgan bir paytda ham bu yerlardan bosh olib ketish haqida o'yamas edi.

**Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qur'onov D. Adabiyat nazariyasi asoslari. Sharq. Toshkent. 2018.
2. Hurlburt.R.T. Investigating pristine inner experience: Moment of truth. Cambridge University Press, 2011.
- 3.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Noshir. Toshkent. 2019.
- 5.Do'stmuhammad X. Panoh. Sharq. Toshkent. 2011.